



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA METODLARDAN FOYDALANISH

Muxamedov Muzaffar Xasanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-6726-4257

muxamedov.muzaffar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil etiladi. 2022 – 2025 yillar bo'yicha tijorat banklarining aniq statistik ma'lumotlari keltiriladi. Bank faoliyati va amaliyotida uchraydigan kredit, bozor, operatsion, likvidlilik, reputatsion va komplaens risklarga ta'rif beriladi va O'zbekiston bozorida shu risklarni qisqartirish bo'yicha takliflar beriladi. Bu borada sun'iy intellekt, mashinali o'rganish texnologiyalarini joriy etish orqali xavflarni kamaytirish usullari, xalqaro standartlar, texnologik innovatsiyalar va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun inson kapitalini rivojlantirishni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: kredit risklari, bozor risklari, operatsion risklar, likvidlilik risklari, reputatsion risklar va komplaens risklar, bank sektorini transformatsiyasi, Bazel III kelishuvi, sun'iy intellekt texnologiyalari, mashinali o'rganish tizimi, zamonaviy metodlar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Мухамедов Музаффар Хасанович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к совершенствованию системы управления рисками в коммерческих банках Узбекистана. Приводятся конкретные статистические данные по коммерческим банкам за период 2022–2025 годов. Даются определения кредитным, рыночным, операционным, ликвидным, репутационным и комплаенс рискам, встречающимся в банковской деятельности и практике, а также предлагаются меры по предотвращению этих рисков в рынке Узбекистана. Предлагаются методы снижения рисков путем внедрения технологий искусственного интеллекта и машинного обучения, интегрированные решения, включающие международные стандарты, технологические инновации и развитие человеческого капитала для повышения финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: кредитные риски, рыночные риски, операционные риски, риски ликвидности, репутационные риски и комплаенс-риски, трансформация банковского сектора, соглашение Базель III, технологии искусственного интеллекта, система машинного обучения, современные методы.

USE OF MODERN TECHNOLOGIES AND METHODS IN IMPROVING THE RISK MANAGEMENT SYSTEM OF COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Mukhamedov Muzaffar Khasanovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes modern approaches to improving the risk management system in commercial banks of Uzbekistan. It provides specific statistical data on commercial banks for the period of 2022–2025. Definitions are given for credit, market, operational, liquidity, reputational, and compliance risks encountered in banking activities and practices, along with proposed measures to prevent these risks in the Uzbekistan market. In this regard, methods for risk reduction are suggested through the implementation of artificial intelligence and machine learning technologies, as well as integrated solutions that encompass international standards, technological innovations, and the development of human capital to enhance the financial stability of banks.*

Keywords: *credit risks, market risks, operational risks, liquidity risks, reputational risks, compliance risks, banking sector transformation, Basel III agreement, artificial intelligence technologies, machine learning system, modern methods.*

Kirish.

O'zbekiston tijorat banklarining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish, moliya sektorining jadal rivojlanishi va global iqtisodiy xavf-xatarlar mavjud sharoitda, risklarni boshqarish tizimni barqarorligini ta'minlash va takomillashtirish, moliya bozorini raqamlashtirish uchun muhim omil bo'lib xisoblanmoqda. Hozirgi davrda mahalliy banklar o'z faoliyatini modernizatsiya qilishni va uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ishlarini jadal davom ettirilmoqda. Risklarni boshqarishning samarali amaliyotlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tartibga solish, talablarga rioya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etayotganli ayon bo'lmoqda. Ushbu amaliyotlarning global bank tendentsiyalari va mintaqaviy nostabillik tufayli yanada takomillashtirish, tijorat banklari kredit, operatsion, bozor, reputatsion va komplayensga oid risklarni xavf darajasini kamaytirish uchun yanada murakkab strategiyalarni joriy etish zarurligi ta'kidlanmoqda.

2000-yillarning boshidan xalqaro bank standartlarini, xususan, Bazel kelishuvlarini joriy etish O'zbekiston bank tizimida risklarni boshqarishga bo'lgan yondashuvlarni o'zgartirdi. Bazel III kelishuvi talablarini qabul qilish mahalliy banklarga kapital yetarililigini oshirish, risklarni baholash usullarini takomillashtirish va risklarni boshqarishning murakkab metodlarini yaratishni talab etdi. Bundan tashqari, ISO 31000 kabi standartlarni integratsiyalash, banklarda risk darajasini aniqlash, baholash va aktiv boshqarish uchun keng qamrovli ko'rsatmalar taqdim etdi. Shu orqali moliya muassasalarida risklar to'g'risida xabardorlik madaniyatini shakllantirishga ko'maklashdi.

Barcha erishilgan yutuqlarga qaramay, O'zbekiston tijorat banklari doimiy ravishda muammolarga duch kelmoqda, jumladan, ma'lumotlar sifati, o'zgaruvchan bozor sharoitlari va raqamli transformatsiya bilan bog'liq ortib borayotgan operatsion risklar. Hozirgi vaqtda qat'iyroq muvofiqlik usullaridan foydalanish va risklarni boshqarish tizimlarini doimiy takomillashtirish zarurati bank sektorining barqarorligini oshirish uchun ushbu muammolarni hal qilishning muhimligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mikrokreditlash darajasining o'sishi va yuridik va jismoniy shaxslarning qarz yuklamasi bo'yicha xavotirlar iqtisodiy tebranishlar sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ishonchli risklarni boshqarish amaliyotlarini joriy etishning dolzarbligini yanada ta'kidlamqda.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda "risklarni boshqarish tizimi" tushunchasi turli iqtisodchilimlar tomonidan har xil tarzda ta'riflanib, ularni kamaytirish usullari ko'rsatib o'tilgan. Olimlar Smith (AQSh) va Müller (Germaniya) (2022) o'z limit nashrlarida COVID-19 dan keyingi beqarorlik sharoitida kredit riskini baholash uchun mashinali o'qitishni qo'llashni tadbiiq qilgan. Mualliflar neyron tarmoqlar asosida model ishlab chiqqan bo'lib, bu model an'anaviy usullarga nisbatan defoltlarni 20% aniqroq bashorat qila olgan. Ayniqsa, pandemiya davrida eng zaif bo'lgan kichik biznes ma'lumotlarini qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilgan. Yevropalik olimlar, masalan, Rossi (Italiya) va Brown, (Buyuk Britaniya) (2021) o'z tadqiqot maqolalarida kiber-risklarni umumiy operatsion risk-menejment tizimiga integratsiya qilishni taklif qilib, IT-infrastrukturani stress-testdan o'tkazish zarurligi hamda NIST (AQSH) va GDPR (Evropa Ittifoqi) standartlarini joriy etish muhimligini ta'kidlangan. Italiya va Germaniya banklariga oid keysga asosan, monitoringjarayonini avtomatlashtirish zararni 15–30% ga kamaytirishini ko'rsatdi. Ilmiy tahlilga ko'ra, 2019–2023 yillardagi moliyaviy sektorda risklarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha asosiy tendentsiyalar sifatida sun'iy intellekt, Big Data (katta ma'lumotlar bazasi) yordamida risklarni bashorat qilish, Bazel IV shartlariga moslashish, ESG-risklari talablariga rioya qilish, kiberxavfsizlik, makroiqtisodiy va kichik biznes risklarini hisobga olish, GDPR (Evropa Ittifoqi) va stress-test (AQSH) yondashuvlaridagi farqlar hisoblanadi.

MDH davlatlari olimlaridan Petrov va Ivanova (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan Rossiya tijorat banklarida risklarni boshqarishning raqamli transformatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotida Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining kredit risklarini boshqarishda qo'llanilishiga ta'sirini o'granishgan. Bunda mualliflar Sberbank va Tinkoff Bank misollarini tahlil qilib, mashinaviy o'qitish algoritmlari bank faoliyatida qo'llash natijasida, muddati o'tgan qarzlarning ulushi 12–15% ga kamayishini o'z tadqiqotlarida ko'rsatib berishadi.

Qo'shni Qozog'iston olimlari Karimov (Qozog'iston) va Volkova (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan Sanksiyalar bosimi sharoitida Bazel III kelishuvini moslashtirish: Qozog'iston banklari tajribasiga nomli tadqiqotlarida xalqaro sanksiyalar va makroiqtisodiy o'zgaruvchanlik banklar kapitallashuviga ta'sirini ko'rib chiqishadi. Valyuta risklari va tashqi moliyalashtirish cheklovlarini hisobga olgan holda stress-test modelini taklif etadi. Undan tashqari tadqiqotda, Kaspi Bank misolida aktivlarni diversifikatsiyalash qanday qilib xorijiy bozorlarga bog'liqlikni kamaytirishi borasida izlanishlar olib borilgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchi olimlardan Rahimovning (2019) ilmiy maqolasida kichik biznes defoltlarini bashorat qilish uchun neyron tarmoq modeli ishlab chiqilganligi ko'rsatilgan. Uning ilmiy izlanishlariga ko'ra, O'zbekiston Milliy banki ma'lumotlari asosida yangi modeldan foydalangan xolda prognoz aniqligini an'anaviy usullarga nisbatan 18% ga oshirish mumkin. Muallif mintaqaviy xususiyatlarni, masalan, iqtisodiy sohadagi ko'rinmas iqtisodiyot ulushini hisobga olishni muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ushbu ma'lumotlar tijorat banklarni risklarni boshqarish tizimining zamonaviy metodlari, sun'iy intellekt, mashina o'rganuvi, texnologik yutuqlar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tahlilda, banklarning risk-menejment tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi, dolzarb statistik ma'lumotlar keltiriladi, xalqaro tajriba tahlil qilinadi va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish hamda salbiy oqibatlarni minimallashtirish uchun amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi dinamik rivojlanishni namoyish etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil boshiga kelib bank

tizimining umumiy aktivlari miqdori 769,3 trillion soʻmdan oshib ketdi, faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 36 tani tashkil etdi, bank sektorining umumiy kapitali 114 trillion soʻmni, kredit portfeli hajmi 533,1 trillion soʻmni, jalb qilingan mablagʻlar hajmi 308,7 trillion soʻmni tashkil qildi. Davlat banklarining tizim aktivlaridagi ulushi esa 60% dan yuqori. Shunday boʻlsada, banklar kapitalizatsiya darajasi barqarorligicha qolmoqda, yaʼni sektorda oʻrtacha kapital yetarliligi 17,4% ni tashkil qiladi, bu Markaziy Bank belgilagan normativ(13%)dan ancha yuqori darajani koʻrsatmoqda.

Shunday boʻlsada, tizimli muammolar saqlanib qolmoqda, ayniqsa kredit risklarini boshqarishda, bunda muammoli kreditlar hajmi (NPL) 2025 yil yanvariga kelib 21,2 trillion soʻmga (1,64 milliard AQSh dollari ekvivalentida) yetdi, bu yillik oʻsishning 7,85% ga teng ekanligini aks ettiradi. Ushbu maqolada tijorat banklari duch keladigan xatarlarning ortib borayotgan hajmi tahlil qilinib, texnologik innovatsiyalar, meʼyoriy hujjatlarga muvofiqlik va zamonaviy texnologiyalarni oʻzida mujassam etgan yaxlit tizim taklif etiladi. Tadqiqot institutlarining soʻrov va tahlil natijalariga tayangan holda, sunʼiy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan risklarni baholash modellarini joriy etish NPL darajasini 31% ga kamaytiradi, xar chorakda stress-test oʻtkazadigan banklar esa qolganlarga nisbatan 25% ga koʻproq barqaror likvidlikni namoyish etishi prognoz qilingan. Xulosalar risklarni boshqarish amaliyotlarini Bazel III standartlariga moslashtirish va kredit berishning tez kengayishi natijasida yuzaga keladigan zaifliklarni yumshatish uchun modernizatsiya qilishning dolzarbligini taʼkidlaydi.

Risklarni boshqarish tizimi, qisqacha aytganda - bu bank tomonidan oʻz moliyaviy faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlar ehtimolini kamaytirish uchun choralar koʻrish, risklarni aniqlash va baholash jarayonidir. Bu bank sohasida ayniqsa muhim, chunki banklar moliya instrumentlarini yaratadi va boshqaradi. Bank risklarini boshqarish turli sohalarni qamrab oladi. Muammo nafaqat turli xil risk turlarining koʻpligida, balki banklarning ushbu omillarni qanchalik nazorat qila olishida hamdir.

Quyida biz Oʻzbekiston bank sohasida turli risk turlari, ularni takomillashtirish hamda boshqarish usullari haqida qisqacha koʻrib chiqamiz.


Kredit riski, bu banklardagi muhim risklardan boʻlib, kredit berishning oʻsishi, uning turlarining kengayishi, muddatlari va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyasi bilan birga bevosita bogʻliq. Bugungi kunda kredit riski bankning umumiy risk hajmining oʻrtacha 60% ini tashkil qiladi. Oddiy qilib aytganda, bank tomonidan berilgan kreditlar boʻyicha kechiktirilgan toʻlovlar bankning moliyaviy majburiyatlarini bajarish uchun mavjud aktivlari hajmini kamaytirishi mumkin. Bunday turdagi risklarning paydo boʻlishining asosiy sabablari portfollarning past darajadagi diversifikatsiyasi va yuqori oʻzgaruvchan sektorlardan qaramlikdir.

2024–2025 yillarda Oʻzbekiston tijorat banklarining kredit portfeli hajmi 9% ga oshdi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar hajmi (NPL) 3-4% oraligʻida qolmoqda, bu qarz oluvchilarning toʻlov qobiliyatini aniqroq baholash va banklarning andarrayting tekshiruvchi usullarining sifatini oshirish zarurligini koʻrsatadi.

Banklar, risk darajasini kamaytirish uchun zamonaviy skoring tizimlari va katta maʼlumotlarni tahlil qilishning yangi metodlarini joriy etmoqda. Koʻpgina banklar qarz oluvchilarni baholash uchun sunʼiy intellektga asoslangan platformalardan foydalanishni boshlagan. Bugungi kunda barcha banklarda jismoniy shaxslarga kredit berish boʻyicha avtomatlashgan skoring tizimlari joriy etilgan va muvaffaqiyatli qoʻllanilmoqda. Biroq, ochiq manbalarga koʻra, 2024 yil oxiriga qadar yuridik shaxslarga kredit berishda qarz oluvchilarni baholash uchun skoring tizimlaridan foydalanish haqida maʼlumot yoʻq, bu esa qaror qabul qilishda qoʻshimcha risklarni keltirib chiqaradi.

Bozor risklari, bu bank sohasidan tashqaridagi hodisaning bank investitsiyalariga salbiy taʼsir koʻrsatishi ehtimoli hisoblanadi, masalan, siyosiy beqarorlik yoki tabiiy ofatlar ham bozor risklari darajasini oshirishi mumkin. Bozor riskini bankning investitsiya portfelini

diversifikatsiya qilish orqali yumshatish mumkin. Biroq, ba'zi hollarda bu strategiyalar ish bermaydi, chunki inqiroz bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan bir nechta sohalarga ta'sir qiladi. Global iqtisodiy jarayonlarning ta'siri (inflyatsiya kutishlari, valyuta beqarorligi va foiz stavkalarining o'zgarishi) banklarning daromadiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning qarz oluvchisi bo'yicha taqsimoti.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisobotlari.

Ushbu riskni kamaytirish maqsadida banklar, barcha jahonda bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilish bo'yicha mavjud instrumentlardan aktiv foydalanishi lozim. Shu qatorda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi zamonaviy dasturiy ta'minotlarga talab ham tobora oshib bormoqda.

Operatsion risk, bu moliyaviy institutlarning moliyaviy faoliyatini sifatsiz boshqarish orqali yuzaga keladigan riskdir. Operatsion riskning tarkibiy qismi sifatida kiberxavfsizlik tizmini olish mumkin. Bu kiberjinoyatchilar tomonidan bankning raqamli tizimlariga hujum qilish ehtimolini baholaydi. Bank xizmatlarining raqamlashtirish jarayonlarning avtomatlashtirilishi va yangi IT-platformalarga o'tish xavfsizlik va ichki jarayonlar bilan bog'liq qo'shimcha operatsion risklarni keltirib chiqaradi.


Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy muassasalardagi hodisalarning taxminan 30% texnologik nosozliklar va kiberhujumlar bilan bog'liq. Operatsion riskni kamaytirish uchun malakali xodimlarni yollash va ularni bank jarayonlari hamda axloqiy madaniyat bo'yicha to'g'ri o'qitish zarur. Zamonaviy IT-texnologiyalar yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish inson xatolarini kamaytirishga yordam beradi, qayta aloqa dasturlari va ma'lumotlarni yig'ishni joriy etish bank faoliyatini boshqarish siyosatiga kerakli tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Likvidlik riski, bu bankda naqd pul mablag'lari tugab qolishi va moliyaviy muassasa qisqa muddat ichida boshqa aktivlarni tezlik bilan naqd pulga aylantira olmasligi ehtimoli bilan bog'liq riskdir. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy muassasaning kreditorlar yoki mijozlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajara olmasligiga olib keladi.

2025 yil boshiga kelib likvidlik risklari bo'yicha banklararo kreditlar hajmi 715 milliard so'mni tashkil etdi, bu mamlakat ichidagi banklararo bozorning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq, qayta moliyalashtirish vositalari va likvidlikka bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish metodikasi hamon takomillashtirishga muhtojligidan dalolat bermoqda.

Markaziy bank xisobotiga ko'ra, valyuta kreditlari ulushi, umumiy kredit portfelining 43% ni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida valyutada bo'lgan risklar darajasini oshiradi. Bank

risklarini samarali boshqarish, bankning turli moliyalashtirish usullari, mijozlarni investitsiya qilish, kreditlash bilan bog'liq potentsial risklarni tushunishni nazarda tutadi. Bank sohasida risklarni boshqarishning asosiy jihatlaridan biri shundaki, bank favqulodda vaziyatlar uchun moliyalashtirish rejasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatda muammoni bartaraf etishga yordam xizmat qiladi. Banklar shuningdek, stress-testlar o'tkazishi mumkin, bu jarayonda likvidlik yo'qotilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan taxminiy risk senariylari yaratiladi va har bir holatda qancha likvidlik yo'qotilishi baholanadi. Bu bankka likvidlikning asosiy stavkalarini shakllantirishga imkon beradi va inqiroz yuzaga kelgan taqdirda yetarli aylanma kapitalga ega bo'lishini kafolatlashga yordam beradi. Banklar valyuta pozitsiyalarini boshqarishda faol ravishda xedjlash va boshqa cheklovlardan foydalanishi tavsiya etiladi.



2-rasm. Butun dunyo bo'yicha 2020-2023 yillar oralig'ida qilingan kiberxujumlar natijasida ko'rilgan Zarar miqdori

Manba: Turli elektron resurslar: kasperskycontenthub.com, ptsecurity.com, cybersecurity.asee.io, spilno.org, dapp.expert.ru, tadviser.ru.

Reputatsion risk, bu bank o'z investorlari va mijozlarining ishonchini yo'qotishi natijasida moliyalashtirish yoki biznesini yo'qotishi bilan bog'liq riskdir. Bu risk bankning biznes amaliyoti yoki xodimlarning xatti-harakatlari bilan bevosita yoki bankning salbiy obro'ga ega shaxs yoki guruh bilan aloqadorligi bilan bilvosita yuzaga kelishi mumkin. Reputatsion risk, mijozning bank tomonidan yomon xizmat ko'rsatilishi, so'ngra buni boshqalarga turli ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazishi natijasida paydo bo'lishi mumkin. Yoki yangiliklar agentligi bank rahbarlari yoki bankning o'zi haqida salbiy xabarlar chop etishi natijasida yuzaga keladi. Banklar o'z reputatsion mavqeini yangiliklarda va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib borishi, muammolarni faol bartaraf etishi va har qanday bo'lgan xatolarida javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Shuningdek, bank obro'siga ta'sir qiluvchi hodisa yoki salbiy ma'lumot paydo bo'lgan taqdirda chora tadbirlar rejasini ishlab chiqishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda O'zbekiston - bank tizimini tubdan transformatsiya qilish yo'lida turibdi. Zamonaviy O'zbekiston bank tizimi - tezkor va samarali risklarni boshqarishni talab qiladigan bir qator murakkab muammolar bilan yuzlashmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini integratsiya qilish, ichki tizimni tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish va risklarni boshqarishni takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etib, tijorat banklarining barqarorligini oshirishda asosiy omillardandir. Bu nafaqat tizimli xavf-xatarlarni kamaytiradi, balki mintaqadagi banklarning raqobatbardoshligini ham oshiradi. O'zbekiston bank sektori an'anaviy risklarni boshqarish modellarini sun'iy intellekt

imkoniyatlari va mashinali o'qitish orqali tartibga solish bilan birlashtirishi kerak. Bazil III kabi xalqaro standartlarni qo'llash va xorijiy moliyaviy institutlarning eng yaxshi amaliyotlarini moslashtirish nafaqat kredit, bozor va operatsion risklar darajasini pasaytiradi, balki global iqtisodiy beqarorlik sharoitida bank sektorining barqaror rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda sun'iy intellektning rolini tartibga solish va texnologik taraqqiyot tufayli o'sib boradi. Mutaxassislarining bashoratlariga ko'ra, 2025 yil - moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda tizimiga sun'iy intellektni imkoniyatlarini joriy etishda burilish nuqtasi bo'ladi, bunda birinchi darajali yetakchi muassasalar mashinaviy o'qitish texnologiyalaridan sezilarli natijalarga erishadi va til modellari hamda transformatorlarga asoslangan boshqa texnologiyalar potentsialini o'rganadi. Shuningdek, kelgusi yillarda bank sektori xodimlari umumiy sonining taxminan 5%i sun'iy intellekt joriy etilishi tufayli qisqartirilishi prognoz qilinmoqda.

Taklif etilgan choralarni amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

muammoli kreditlar darajasi(NPL)ni 5% gacha kamaytirish;

kapital yetarliligi ko'rsatkichini 17% gacha oshirish;

risklarni boshqarish sifatini sun'iy intellekt yordamida 30% ga yaxshilash tahminlarga ko'ra, 2027 yilga kelib banklarning moliyaviy foydasini 12–17% ga oshirishi mumkin.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro standartlarni joriy etish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va tijorat banklari risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun axborot tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha uzluksiz ish olib borish zarur.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Anon, (n.d.). *Banking System in Uzbekistan – Azizov & Partners*. [online] Available at: <https://azizovpartners.uz/en/memos/banking-system-in-uzbekistan/>.

Dapp.expert. (2025). *Как искусственный интеллект повлияет на банковский сектор: ожидается сокращение до 200,000 рабочих мест*. [online] Available at: <https://dapp.expert/ru/news/kak-iskusstvennyi-intellekt-povliiaet-na-bankovskii-sektor-ozidaetsia-sokrashhenie-do-200000-rabocix-mest>.

Hisobot (2025) *2022–2025 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki xisobotlari*. www.cbu.uz.

NAME, N. (2025). *Cybersecurity statistics: 100+ cybersecurity stats to know in 2025*. [online] *Cybersecurity ASEE*. Available at: <https://cybersecurity.asee.io/blog/cybersecurity-statistics/>
ptsecurity.com. (2024). *Аналитические статьи*. [online] Available at: <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/>.

Rossi A., Brown L. (2021) *Cybersecurity and Operational Risk: A Framework for European Banks*/ *Risk Management Journal*.

Smith J., Müller T. (2022) *AI-Driven Credit Risk Modeling in Post-Pandemic Banking*/ *Journal of Banking and Finance*.

TAdviser.ru. (2025). *TAdviser - портал выбора технологий и поставщиков*. [online] Available at: <https://www.tadviser.ru//index.php/>

Виталий Якушев (2020). *2020: кибербезопасность в цифрах*. [online] *Spilno.org*. Available at: <https://spilno.org/article/2020-kyberbezopasnost-v-tsyfrakh>

Рахимов Ш.Т. (2019) *Моделирование кредитного риска в условиях нестабильной экономики Узбекистана*/ *Журнал Финансовые исследования*.